



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

## BANKLARARO RAQOBAT SHAROITIDA DEPOZIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

Madina Sirajova<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Bank Moliya Akademiyasi tinglovchisi

| KALIT SOʻZLAR   | ANNOTATSIYA   |
|---|---|
| depozit sertifikatlar, banklararo raqobat, depozitlar barqarorligi, depozit siyosati, muddatli depozitlar, depozit operatsiyalari, passiv operatsiyalar, depozit bazasi, bank depoziti          | Maqolada banklararo raqobat sharoitida depozit jalb qilishning dolzarb tendensiyalari va O‘zbekistondagi tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan depozit operatsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, depozit bazasining tarkibi va unga ta’sir qiluvchi omillar, depozit siyosatini takomillashtirish yo‘llari va ularning moliyaviy barqarorlikka ta’siri ko‘rib chiqilgan. |
| КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА  | АННОТАЦИЯ   |
| депозитные сертификаты, межбанковская конкуренция, стабильность депозитов, депозитная политика, срочные депозиты, депозитные операции, пассивные операции, депозитная база, банковский депозит. | В статье проанализированы актуальные тенденции привлечения депозитов в условиях межбанковской конкуренции и депозитные операции коммерческих банков Узбекистана. Также проанализированы состав депозитной базы и влияющие на неё факторы, пути совершенствования депозитной политики и их влияние на финансовую стабильность.   |
| KEY WORDS   | ABSTRACT  |
| deposit certificates, interbank competition, deposit stability, deposit policy, term deposits, deposit operations, passive operations, deposit base, bank deposit.                              | This article discusses the current trends in deposit mobilization under the conditions of interbank competition and analyzes the deposit operations conducted by commercial banks in Uzbekistan. It also examines the composition and factors affecting the deposit base, explores ways to improve deposit policy, and their impact on financial stability.                       |

**Kirish.** Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda bank tizimini raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari oldiga qo‘yilayotgan ustuvor yo‘nalishlardan biri banklararo raqobat sharoitida depozit siyosatini takomillashtirishdir. Shu sababli, bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta’minlash, avvalambor, resurs bazasining mustahkamligi hamda diversifikatsiyalanish darajasini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarning

muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan makroprudensial nazorat bo‘yicha talablarning kuchaytirilishi milliy valyutadagi uzoq muddatli likvid resurslarning yetishmasligi hamda banklarning likvidlik bo‘yicha tegishli ko‘rsatkichlarga erishish zaruratining yuzaga kelishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Shu sababli, hukumatimiz tomonidan tijorat banklarining depozit siyosatini, moliyaviy barqarorligini rivojlantirish, takomillashtirish bo'yicha bir qator oqilona siyosatlar olib borilmoqda. Shuningdek, banklarining depozit siyosatini takomillashtirish orqali banklarning kapitaliga aholi, tadbirkorlik subyektlari, investorlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorida faol joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, tijorat banklarining o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etish, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, tijorat banklarining depozit bazasi mutahkamligiga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi, tijorat banklari depozit bazasining yetarlilik darajasi, jamg'arma va muddatli depozitlarga nisbatan belgilangan foiz stavkalarining beqarorligi va foiz stavkalarining daromadlilik darajasiga ta'sirini o'rganish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son farmoniga muvofiq 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi. Strategiyaning maqsadi zamonaviy bank tizimini

shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat [1].

**Adabiyotlar tahlili.** Tijorat banklarining transformatsiya jarayonida depozit siyosatini samarali tashkil qilish orqali aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilishi bilan bog'liq muammolar qator olimlar tomonidan tahlil etilgan. Xususan, olib boriladigan depozit siyosatining maqsadi va vazifalarini aniqlash bo'yicha masalalarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, qator olimlar depozit siyosatini ishlab chiqishda asosiy masala maqsadni to'g'ri shakllantirish va ushbu maqsadga erishish uchun moliya bozorining zamonaviy holati, shuningdek, iste'molchilarning manfaatlarini hisobga oluvchi tegishli instrumentlarni tanlash hisoblanadi deb fikr bildirganlar. Bundan tashqari, tijorat banklari dastlabki bosqichda depozit operatsiyalariga kirib borish uchun depozit siyosatini ishlab chiqishi, so'ngra bank faoliyatini olib borish jarayonida depozit portfelini rivojlantirish va diversifikatsiyalash siyosatini ishlab chiqishi ham ta'kidlangan. Depozit siyosati strategiyasi tijorat bankining bozordagi salmog'iga mos ravishda bir necha turda bo'lishi mumkin. Jumladan, bunday strategiyalar O.I.Lavrushin tomonidan yetakchi, raqobatchi ortda qoluvchi strategiyalari sifatida tasniflangan.

*Depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan tegishli bo'linmalarni belgilab olish hamda bank xodimlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash* (depozit siyosatining ma'muriy mexanizmini ishlab chiqish). Har bir kredit tashkiloti depozit siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha bank bo'linmalari va xodimlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini tashkil etish tizimini ishlab chiqadi.

Resurslarni jalb etish borasidagi zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish: depozit mablagʻlarni jalb etish instrumentlari (depozit operatsiyalar va ularning asosiy shartlari) va depozit operatsiyalarini amalga oshirishning ichki reglamentatsiyasi (depozit siyosatini amalga oshirish vositalari).


Depozit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida nazorat va boshqaruvni tashkil etish. Depozit siyosatining ushbu elementi nazorat va boshqaruvni amalga oshirishning logistik tizimi, bank boʻlimlari va xodimlarining oʻzaro hamkorligi algoritmi, vakolatlar doirasi va samaradorlikni baholash koʻsatkichlarini qamrab oladi [3].

M.N.Buxadurova “Aholi bilan oʻzaro munosabatlarda tijorat banklarining depozit siyosati” nomli ilmiy ishida qayd etishicha, “depozit siyosati bank siyosatining ajralmas qismi hisoblanib, qaytarish va toʻlovlilik shartlari asosida bank mijozlarining pul mablagʻlarini jalb etish boʻyicha bosqichma-bosqich, oʻzaro aloqador hatti-harakatlar; maqsadga muvofiq darajadagi rentabellik va bank likvidligiga erishishni taʼminlash maqsadida siyosatni amalga oshirish metodlari va vositalari jamlanmasi” hisoblanadi [4; 12-15].

A.M.Tavasiyev bank sektoridagi raqobatni oʻrganib chiqib, uni quyidagicha taʼriflaydi: raqobat – bu xoʻjalik subyektlarining “qattiqqoʻl nazoratchi, yaʼni oʻzini oʻrtacha bozor narxlarida namoyon qiladigan qiymat qonuni talabi bilan amalga oshiriladigan amaliy (aniq) harakatlari [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida maʼlumotlarni jadvallar asosida qiyosiy tahlil, maʼlumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash tizimli tahlil asosida statistik guruhlash, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

**Natijalar.** Banklarning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va risklarning xavfsiz meʼyori taʼminlanishi, ularning depozit bazasini mustahkamligi bilan bevosita bogʻliqdir. Keyingi yillarda xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida depozit mablagʻlarga boʻlgan talabning ortib borishi banklar depozit bazasiga oid dolzarb masalalarni yuzaga chiqarmoqda. Xususan, banklar depozit bazasining iqtisodiy mazmunini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, shuningdek, uning manbalari va unga taʼsir qiladigan omillarni aniqlash shular jumlasidandir.



**1-rasm. Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar va ajratilgan kreditlarning valyutaviy kesimdagi dinamikasi, (mlrd soʻmda)**

(Oʻzbekiston Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz sayti maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi)

1-rasmdagi maʼlumotlar tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar tarkibida xorijiy valyutadagi depozitlar salmogʻining yetarli darajada kattaligidan dalolat beradi. Xususan, 2017-yilning 1-yanvar holatiga jami depozitlarning (37 183 milliard soʻm) 26,9 foizi (10 007 milliard soʻm) xorijiy valyutada jalb qilingan boʻlsa, 2023-yilning shu sanasiga mazkur nisbat 39,2 foizni (216 737 milliard soʻm va 84 942 milliard soʻm) tashkil qilgan yoki 12,3 foiz punktiga oshgan.



Ajratilgan kreditlar bo'yicha xorijiy kreditlar salmog'i 2017-yil 1-yanvaridagi 42,7 foizdan 2023-yil yanvariga 47,4 foizgacha yoki 4,7 foiz punktiga ko'paygan. Mazkur ma'lumotlar ikki muhim xulosani shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, xususiy va davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan xorijiy valyutadagi kreditlarga talabning nisbatan yuqoriligi, iqtisodiyotni kreditlashda tashqi moliyalashtirish manbalari ulushining ustunligi va xedjirlash vositalarining yo'qligi kreditlar dollarlashuvining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Ikkinchidan, yillar mobaynida valyuta siyosatidagi cheklovlar, aholining milliy valyutaga nisbatan ishonchsizligi, inflyatsiyaning nisbatan yuqori darajasi, shuningdek, muqobil jamg'arma instrumentlarining kamligi banklarda depozitlar dollarlashuv darajasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida yaqin istiqbolda tijorat banklari resurs bazasida ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan milliy va xorijiy valyutadagi qarz mablag'lari salmog'i oshib borishi hisobiga bank mijozlarining kreditga bo'lgan talabi qondirib borilishi tendensiyasini qayd etish mumkin. Bunday holat quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin:

a) narxlarning global o'sishi va inflyatsiyaviy xatarlarning kuchayishiga javoban jahon moliya bozorlarida foiz stavkalarining oshirilishi natijasida banklar tomonidan tashqi resurslarni jalb qilishda ma'lum qiyinchiliklarning yuzaga kelishi;

b) milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi oshib borishi;

c) milliy valyutaning to'xtovsiz devalvatsiyasi hisobiga xorijiy valyutadagi depozitlar hajmining oshib borishi;

d) aholi va tadbirkorlar o'rtasida inflyatsion kutilmalar yuqori darajada qolishi;

e) jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi depozitlarining valyuta kursining qisqa muddatli

tebranishlariga nisbatan yuqori sezuvchanligi. Xususan, 2022-yilning I choragida so'mning AQSh dollariga nisbatan 5,2 foizga qadrsizlanishi jismoniy shaxslar depozitlari dollarlashuvini 34 foizdan 37 foizgacha oshirgan;

f) moliyaviy va korporativ sektorlarning tashqi qarzlari ko'payishi hisobiga moliyaviy aylanmaning o'sishi, shuningdek, valyuta aktivlari va majburiyatlari tuzilmasining nomutanosibliigi bank tizimida valyuta riski konsentratsiyasining kuchayishiga olib kelishi.

**Muhokama va xulosa.** Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish va depozitlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida xorijiy davlatlar banklarining bu boradagi tajribalarini o'rganish va umumlashtirish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro tajribaning ijobiy tomonlarini respublikamiz bank amaliyotida qo'llash o'zining ijobiy natijasini beradi.

Shu sababli quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

– tijorat banklari muddatli va jamg'arma depozitlarining passivlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqarorligini ta'minlash lozim. Ushbu ko'rsatkichda pasayish tendensiyasi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish lozim;

– transaksion (talab qilib olinguncha) depozitlarning passivlar miqdoridagi ulushining o'sish tendensiyasi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish lozim. Transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining 30 foizdan oshishiga yo'l qo'ymaslik qoidasiga rioya qilish lozim. Buning natijasida tijorat banklari depozit bazasining barqarorligi oshadi. Respublikamiz tijorat banklari depozitlari tarkibida transaksion depozitlarning ulushi 60 foizdan yuqoriligi salbiy holat hisoblanadi.

– o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida moliya bozorlarining rivojlanmaganligi, Markaziy bank majburiy zaxira siyosatining tijorat banklari depozit bazasiga nisbatan salbiy ta'sirining mavjudligi, transaksion depozitlardan resurs



www.isft.uz

“ISFT” ILMY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

sifatida foydalanish amaliyotining mavjudligi tijorat banklarining depozit bazasi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda,

banklar faoliyatidagi likvidlilik riskining kuchayishiga xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli farmoni ilovasining 116-bandi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>.

3. Банковский менеджмент: учебник / Под ред. О.И. Лаврушин. – М.: Кнорус, 2011. – 560 с.

4. Бухадурова М.Н. Депозитная политика коммерческих банков во взаимоотношениях с населением. Автореферат. дис. ... канд. экон. наук. – Москва, 2012.

5. Тавасиев А.М., Ребельский Н.М. Конкуренция в банковском секторе России: Учебное пособие для вузов / Под ред. Тавасиева А.М. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.